

MAHTUMQULI-DO'STLIK KUYCHISI

Jo'rayeva Nargiza Tilovmurodovna

Termiz davlat universiteti akademik litseyi ijtimoiy- gumanitar fanlar kafedrasida ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11100778>

Annotatsiya. Mazkur maqolada turkman shoiri Mahtumquli ijodi va faoliyati yoritib berilgan. Maqola davomida shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari hamda she'rlari tahlil qilingan. Maqola so'ngida do'stlik kuychisi hisoblangan shoir Mahtumqulining ijodiy me'rosi keng miqyosda o'rganilishi ahamiyatli ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy me'ros, do'stlik kuychisi, shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, Ozodiy.

MAHTUMQULI IS A SINGER OF FRIENDSHIP

Abstract. This article describes the work and work of the Turkmen poet Mahtumquli. The socio-philosophical views and poems of the poet are analyzed in the article. At the end of the article, it was noted that it is important to study the creative legacy of the poet Mahtumquli, who is considered a singer of friendship.

Key words: creative heritage, singer of friendship, socio-philosophical views of the poet, Azodi.

МАХТУМКУЛИ – ПЕВЕЦ ДРУЖБЫ

Аннотация. В данной статье рассказывается о творчестве и творчестве туркменского поэта Махтумкули. В статье анализируются общественно-философские взгляды и стихи поэта. В конце статьи отмечалась важность изучения творческого наследия поэта Махтумкули, считающегося певцом дружбы.

Ключевые слова: творческое наследие, певец дружбы, социально-философские взгляды поэта, Азоди.

Ulug' turkman shoiri va mutafakkiri Mahtumquli 1733-yili Atrek daryosi bo'yidagi Hojigovshan ovulida tug'ilgan. Uning ilk ustozlari Ozodiy taxallusi bilan she'rlar yozgan otasi Davlatmamad edi. Oilada xat-savodini chiqargan bo'lajak shoir taxminan olti yoshidan ovul maktabida - Niyozsolih mulla qo'lida o'qiy boshlaydi. O'tkir zehni va tirishqoqligi bilan o'quvchilar orasida alohida ajralib turgan Mahtumquli keyin Qiziloyoq (hozirgi Chorjuy viloyati, Xalach tumani) dagi Idris bobo madrasasida tahsilini davom ettiradi. So'ng Xivaning Sherg'ozixon madrasasida ilmini kamolga yetkazadi. Shuningdek, bir muddat Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida ham o'qigani haqida rivoyatlar mavjud.

Mahtumquli badiiy so'zni yuksak qadrlagan va ijodiy qobiliyatga ega ma'rifatli oilaga mansub. Atrek janubidagi viloyatda tug'ilgan bobosi (voqean, uning ismi ham Mahtumquli bo'lgan - shoirga bobosining otini berishgan) tirikchilik vajidan turkmanlarning gurduz qabilasiga ish izlab keladi va urug' boshliqlaridan birining qo'lida yollanib ishlaydi. Ma'lum muddat o'tib, xo'jayin uni o'z jiyaniga uylantirib qo'yadi va u alohida xo'jalikning boshlig'iga aylanadi. Dehqonchilik qilish bilan birga, otga to'qim tikish, qamchi to'qish, yugan va ayil yasash orqali daromadini muttasil oshira borib, Mahtumquli Yonachi (to'qimduz) nomi bilan dovrug' taratadi. Bo'sh qolgan vaqtlarida u qo'shiqlar to'qigan va ulardan biri bizgacha yetib kelgan.

Otasi Davlatmamad ham alohida qobiliyati bilan ajralib turar edi. U boshlang'ich ma'lumotini ovulda olib, so'ng Xiva madrasalarida o'qishini davom ettiradi. Ovulga qaytgach, bolalarni o'qitish bilan birga, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Agar bobosi uchun she'r to'qish shunchaki havas bo'lgan bo'lsa, otasi haqiqiy shoir bo'lib yetishadi. U Ozodiy taxallusi bilan ko'plab qo'shiq va g'azallar yaratadi. Uning kariyb 6 ming misradan iborat pand-nasihat mazmunidagi «Vaz'i Ozod» («Ozod vaz'i») nomli dostoni saqlanib qolgan. Bu asarlar Ozodiyning forsiy va turkiy adabiyotdan, xususan, Alisher Navoiy ijodidan yetarli darajada xabardorligini ko'rsatadi.

Davlatmamadniig oilasi katta bo'lib, Mahtumquli uning uchinchi o'g'li hisoblanadi. Bo'sh vaqtlarida poda boqib, otasiga ko'maklashgan Mahtumquli 9 yoshidan she'r mashq qila boshlaydi. Mahtumquli boshlang'ich ma'lumotni otasidan oladi. Bu haqda shoirning o'zi shunday yozadi:

Ranju zahmat chekib, agar qilsam yod,
Qiblagohim—otam o'qitgan ustod.

Keyingi ta'limni Bekturdi eshondan, Xivadagi SHerg'oz va Buxorodagi Ko'kaldosh madrasalarida olgan. Mahtumquli Sharq adabiyotini chuqur o'zlashtirgan. Shoir «San bo'lsam» she'rida Abusaid Abulxayr, Umar Xayyom, Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Hofiz SHeroziylarni katta hurmat bilan tilga oladi.

Shoir she'rlarining davrlar o'tib, zamonlar almasha-da, o'z ahamiyatini yo'qotmay, aksincha, qadr-qimmatini tobora ortib borishi ulardagi pand-nasihatlarining yuraklarga malham bo'lib singganligidandir, ko'ngillarni ilhomlantirib, qanot baxsh etishidandir, kishilarni hayajonga solishidandir. Uning she'rlari jarohatli yuraklarga malham, horg'in vujudlarga quvvat, tushkun ruhga ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Xuddi shuning uchun turkman xalqi qiynalgan, ozor chekkan, nochor qolgan, g'ussaga botgan paytlarda Mahtumqulini dardlaridan forig' etadigan ma'naviy bir hakimi Luqmon deb biladi. Shoirning malham yanglig' she'rlari, da'vatkor so'zlari barcha davrlarda katta-yu kichikning ruhini poklab, bu go'zal dunyoga, insonga, hayotga muhabbat uyg'otadigan, xalq ko'nglini yuksakka ko'tarib, butun turkman jamiyatining ruhiy sog'lomligiga xizmat qilib kelgan.

Haqiqatdan ham Mahtumquli she'rlari tog' bag'ridan qaynab chiqqan zilol chashmaning suvi kabi musaffodir. Ular lola-rayhonli, gul-lolali bog'-bo'stonning muattar hidi kabi barq urib, ko'ngilni zavq-u shavqqa to'ldiradi. Bo'g'in-bo'g'inlarni bo'shashtirib, yuraklarni yayratgan dutorning mayin va dil o'rtar nolasi kabi hayajonga soladi. Mahtumquli yashagan zamon nihoyatda og'ir va murakkab bir davr edi. Shu davrning ma'naviy havosidan nafas olgan shoir kuchli larzalarning, turli hodisalarning girdobida kuyib-pishib yashagan.

U jamiyatni, hayotni, odamlarni teran tushungan, insoniyat erishgan dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur o'zlashtirgan, ma'naviy kamolotga erishgan komil zot bo'lgan. Mutafakkir umuminsoniyat baxt-u saodati uchun jon kuydirib yashagan chog'ida o'sha davrda dunyoning turli burchaklariga sochilgan, mustaqil davlati bo'lmagan turkman xalqini hamjihat bo'lishga, yagona davlat atrofiga jipslashishga, milliy birdamlikka chaqiradi.

Mahtumquli Buxoro yoki Xivada, Afg'oniston yoki Hindistonda, Rumiston yoki boshqa bir yurtlarda bo'lib, «eldan-elga oralab» yursa-da, uning fikri xayoli, dard-u tashvishi hamisha xalqi va uning taqdiri bilan band bo'lgan.

XVIII asrda Mahtumquli olg'a surgan «turkman qabilalarining ittifoqi» haqidagi muhim ijtimoiy fikrning amalga oshishi uchun katta to'siqlar mavjud edi. Bu asrda turkman qabilalarining har biri alohida-alohida holda o'z yo'lini axtarardi. Milliy turkman davlatining yo'qligi, bu qabilalarning har yerdan panohtirib yurishi ular orasidagi ixtiloflarni yuzaga keltirardi, ularni bir-biridan uzoqlashtirardi.

Turkmanlarning o'zaro kelishmasligini istab, bu yo'nalishda muayyan maqsad bilan harakat qilgan kuchlar ham oz emasdi. Ana shunday sharoitda mutafakkir shoir xalqining eng ulug' dushmani noahillik ekani, bahamjihat bo'lib, o'zaro til topishish kerakligi, barcha qabilalar birlashib, bir maqsadga, bir davlatga bo'ysunishi zarurligini qayta-qayta uqtiradi.

«Turkmaning...» she'rida shunday misralar bor:

Ko'ngillar, yuraklar bir bo'la boshlar,
Uyushsa, eriydi tuproqlar, toshlar,
Bir sufrada tayyor qilingan oshlar,
Yuksaladi baxt-iqboli turkmaning.

Bu she'r qo'shiq qilib kuylangan, turkman xalqi uchun XVIII-XIX asrlarda milliy madhiya bo'lib xizmat qilgan. Lekin bu aniq g'oyani noahil xalqining bir dasturxon atrofida jam bo'lishini qanday qilib amalga oshirish mumkin edi? Mutafakkir shoir buning uchun bir boshga bo'ysunish zarurligi, bir mardning atrofida jam bo'lish kerakligi g'oyasini ilgari surdi. Shoir har qanday og'ir va mushkul sharoitlarda ham o'z elining baxtiyor kelajagiga bo'lgan ishonchini yo'qotmadi.

Mahtumquli Firog'iyning turkman xalqi oldidagi eng buyuk xizmatlaridan biri uning hamjihatlik yo'lidagi izchil kurashi va o'zaro nizolarni keskin qoralashidir. Mana, qancha vaqtdan buyon mutafakkir shoirning ahillik, hamjihatlik haqidagi saboqlaridan turkman xalqining necha-necha nasli tarbiyalandi va tarbiyalanmoqda. Barqaror davlatni orzu qilgan Mahtumquli g'oyalarining naqadar haqligini hayot tasdiqladi.

Mahtumquli Navoiy ijodiga katta ixlos qo'ygan va Navoiy g'azallarini, dostonlarini yaxshi bilgan, ulardan ijodiy foydalangan. Mahtumquli so'z san'ati sirlarini egallashda Alisher Navoiyni ko'pgina asarlaridan ilhomlanib ajoyib asarlar yaratgan va Navoiyning ijodiy tajribalariga ko'proq tayanishga harakat qilgan.

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro kelmadi,
Ko'zlarimg'a kecha tong otguncha uyqu kelmadi.
Lahza- lahza chiqdim-u chekdim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zimg'a-yu ul sho'xi badxo' kelmadi.
Orazidek oydin erkonda gar etdi ehtiyot,
Ro'zgorimdek ham o'lgonda qorong'u, kelmadi,

Mahtumquli Navoiyning shu g'azalidan chuqur ta'sirlanadi. Oshiqning dardini baland ehtiros bilan kuylagan misralarni tayanch sifatida oladi va unga yanada go'zal misralar qo'shadi. Mahtumquli ham ustoz Navoiy kabi mahbubaning bevafoolidan zorlanadi, shikoyat qiladi.

Ham getirdi qamatim, peyvesti ebru gelmadi,
Xatti mushkefshanu, hali anbarinbu gelmedi,
Ruzgerim tiyre qilgan je digisu gelmedi,

Geje gelgumdir dibon, ol servi gulru gelmadi.

Go'zlerimge geje don otguncha uyqu gelmedi,

Yuzi kabi oppoq oydinda o'zgalardan o'zini ehtiyot qildi, deyin desam, hayotimdek tun tim bo'lganida ham kelmadi. Parivashim ayrilig'ida shunchalik telbalardek yig'ladimki, ko'rgan odamlarning birortasi o'zini kulgidan tiyolmadi. Qachongacha ko'zlarindan suv oqadi?-deb meni uyatdan o'ldirmang. Oqqan ko'zyoshlarim qon edi. Bu kecha ko'zimga suv kelgan emas. Mahtumqulidek nola aylab ko'ngil uyini beg'am aylab, may bilan xushhol tut. Negaki, may kelgan uyga qayg'u kelmaydi.

Yana bir g'azal "O'lturgusi" radifli g'azalida Navoiy oshiq haqida so'z ochar ekan oshiqni mashuqa vasli umidida Majnun ko'yiga tushib qolganligi to'g'risida bahs yuritadi. Mahtumquli bu o'rinda ham Navoiy g'azallaridagi fikrlarga hamohang fikrlar qo'shadi, mashuqani ta'rif etadi, tashqi va ma'naviy go'zalligi bilan oshiqni o'ziga maftun etadigan mashuqa jamolining tavsifi shoirni diqqat markazida bo'ladi. Mashuqa juda go'zal, u gavhar oshiqni maftun etgudek "qosh-u ko'z", "hol-u xat egasi "mushko'sunbul" sohibidir. Mahtumquli mahbubaning tashqi go'zalligini tasvirlar ekan Navoiy bandlariga uyg'un ravishda ajoyib misralar yaratadi.

Ko'rinadiki, Mahtumquli misralarini Navoiyga uyg'un baytlarga aylanishi, shunchaki adabiy hodisa emas. Aslida ustoz baytlarini mohiyatini anglamoq uni chuqurroq tushunmoq uchun poetik izoh ediki, Mahtumquli uni intihosiga yetkaza olgan. Binobarin partavi husni butun jahonni to'ldirganlikdan o'n sakkiz yoshga shuncha fitnalar uning boshida balolar ko'zu qoshida (Navoiy) o'zi ne hayratga solishi holatki, goh yig'latar, goh kuldirar, nutqidan jon bersa, fatton ko'zlaridan oldirar. (Mahtumquli). Buning boisi bor: Oriflik iqtidori olamni boqiyiligini tan oladi. Olamni yaratilishiga va yaratuvchi naqqoshga oid ilohiy mo'jiza yana ishorat hayrat bor.

Vah, ne to'fon turg'uzib olamni buzdi qahri

Zafaron zar orazin ruh- ruh qilubdur zaxri.

Hurfikrlilik yetuk alloma adiblarni, faylasuf fozillari hamishalik shiori bo'lgan. Mahtumquli sodiq qadam ijodkor ekanligi uning yuqoridagi hayotiy misralaridan ko'rinib turadi. Mahtumquli o'zini o'zi inkor etib, nafs yomon kimsa darajasida ta'riflashga tutingan. Bu bejiz emas. Xayotda ko'p xoru zorliklarga duch kelgan erkin fikrlovchi insonni hajvnoma e'tirofi bu. Xor va zor umr kechirish faqat ijod axliga xos taqdirmi? Yomon otlig' bo'lish gohida xakka bo'lib tanilishga na hojat na zarurat bor edi. Bunday savollarga javobni Mahtumqulini qator g'azallari, muhammaslari, mashhur dostonlari sahifalaridan to'liqroq javob izlaymiz. O'tmish mumtoz adabiyotda romantik ko'tarinkilik, mayllar doim ustuvor bo'ladi, bu qat'iy an'ana bo'lgan. Bu an'anadan Navoiy ham yiroq bo'lmagan.

Mashrabning g'azallari, she'rlari g'oyat nafis va ravon yozilgan. Bu g'azallar shu qadar go'zal va shu qadar jozibadorki, qalblarni maftun etadi. Mahtumquli Mashrabning g'azallari bilan tanishar ekan, o'zi ham Mashrab uslubi va ruhida jarangdor va jozibali she'rlar yozadi. Mahtumqulining "Men senga shaydo" she'rlaridan keltirilgan bu bandlar fikrimizning dalilidir.

Gije ve gunduz seni go'zlar men,

Ko'chebe-ko'che seni izlar men
Her kim yo'luksa senden so'zler men,
Go'rdum yuzinni, alhamdililla.
Bir nige gunler men zari efkar,
Bo'ldum giriftar men sana, ey yor
O' val axirda sen mana derkar,
Go'rdum yuzunni, alhamdililla. "

Bu bandlarda Mahtumquli xalqqa nihoyatda tushunarli, mashrabona ohanglarda nazm barpo eta olgan. Aslida bir qarashda Mashrab usuli yengil va oson o'qilgandek bo'ladi, ammo ushbu yengillik zamirida yotgan falsafiy-ma'rifiy mushohadalarni anglash barchasidan mushkulroq. Yetuk ma'rifatli ijodkorlarga ana shu uslubni tanlaydi. Mahtumquli va Mashrab hamohangligini mohiyati ham ana shunda. Mahtumqulining o'n banddan iborat, "Yorning firoqi" radifli she'rida Mashrabning ishqiy lirikasiga xos ohangdorlikni mazmun talqinidagi yaqinlik va o'xshashlikni, mushtaraklikni ko'ramiz.

Bemori ishqing bo'ldim netarman,
Sobir baloga rozi qazoga
Muhtijning o'qi o'tti bu jondin,
Nogah sovuq so'z tushdi oraga.
Mashrab seni deb kechdi jahondin,
Rahm aylamasang muflis gadoga¹⁶
Mahtumquli:
Ko'nglumi berdim bir bivefaga
Qo'ydi yuragim jebr-u jepaga
Ey nezaninim, mana rahm qil
Galdim sen diyip, sansiz belaga.
Bimari shikin boldum neter men
Ne chere eyley jebre jepaga

Bu g'azallar, ya'ni Mahtumquli g'azali Mashrab g'azaliga o'xshash bo'lsada, unga diqqat bilan nazar tashlasak, Mahtumquli g'azalining o'ziga xos xususiyatlari bor. Mahtumquli g'azali hajm jihatidan katta, undagi 4,5,6 baytlar Mashrab g'azalidagi baytlardan o'zgacha. Bu baytlardagi mazmun Mahtumquli talqinida o'zgacha mazmunni aks ettiradi.

O'zbek va turkman xalqlarining tarixi mushtarak. Tili, madaniyati, urf - odatlari o'xshash. Ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi xalqlarimizning umumiy mulki sanaladi. O'zbek va turkman azaldan taqdir sinovlari davrida biri-biriga yelkadosh bo'lib, shukuhli damlarda quvonchini baham ko'rib kelgan. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar mustaqillik yillarida yangi, sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarildi. Ajdodlarimizning ilmiy, adabiy va ma'naviy merosi xalqlarimizning umumiy mulki sanaladi. Shu ma'noda, o'zbek va turkman xalqi farzandi bo'lgan Mahtumquli ijodiy merosini o'rganish, shoir mahoratini ko'rsatish, umuman olganda, har ikkala xalq o'rtasidagi chambarchas adabiy aloqalani o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Zero, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: «Mahtumquli - bugungi kunda uzbek madaniy-

adabiy turmushida juda ommaviylashib, eng mashxur siymolarning biriga aylangan»..1”- deb to‘g‘ri ta‘kidlagan. Tarix sahifalarini varaqlab ko‘rsak eli-eliga, dili-diliga payvand bo‘lgan turkman va o‘zbek xalqlari qadim zamonlardan beri birodarlikda yonma-yon yashab kelayotganligining guvohi bo‘lamiz. Tog‘i ham, taqdiri ham bir bo‘lgan o‘zbek va turkmanlar go‘yo bir kitobning ikki sahifasi desak yanglishmaymiz. Bu ikki xalq o‘tmishda zulmga qarshi birgalikda kurash olib borganlar, ozodlik uchun janglarda birga qatnashganlar. O‘zbek va turkman adabiy aloqalari uzoq tarixga egadir. Turkiy xalqlarning ko‘pgina mushtarak merosining yaratilishida turkman va o‘zbek bobokalonlari birga qatnashganlar. Turkman va o‘zbek xalqlarining tillarida taraqqiy qilgan adabiyot muayyan mavzularning ishlanishida obrazlar tanlash, uslub va boshqa bir qancha holatlarda bir-birining tajribasidan unumli foydalanganlar.

So‘z mulkingning sultoni Alisher Navoiyning gumanistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan she‘riyati, poetik merosi turkman shoirlarining diqqatini o‘ziga jalb qilgan. XVIII-XIX asrlarda yashab ijod etgan turkman shoirlaridan Ozodiy, Mahtumquli, Andalib, Kamina va Mullanafas, Saidiy va boshqa shoirlar Alisher Navoiyni o‘zlariga ustoz bilib, uning g‘azallariga naziralar yozganlar, muhammaslar bog‘laganlar. Navoiy turkman shoirlarining ham ma‘naviy ustozini hisoblanib, turkman xalqining eski yozma adabiyoti taraqqiyotiga juda katta ta‘sir ko‘rsatgan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Turkmaniston davlatlari o‘rtasida o‘rnatilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalaridagi hamkorliklarda ibratli tadbirlar ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbekiston Prezidenti, hurmatli Sh.Mirziyoyevning Turkmanistonda bir necha marta davlat tashrifi bilan bo‘lishi, Turkmaniston Prezidentining bir necha bor O‘zbekistonga davlat tashrifi bilan kelgani va har ikki tomon o‘rtasida xalqlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatiga xizmat qiladigan bir qator hujjatlarning imzolangani madaniyatimiz va adabiy aloqalarning yanada mustahkamlanishida alohida ahamiyat kasb etdi. Bu siyosiy tadbir, jumladan, adabiyotlarimiz do‘stligi ramziga aylangan—Alisher Navoiy, Mahtumquli, Andalib va Mullanafasdek buyuk so‘z san‘atkorlari ijodini har ikki adabiyotshunoslikda, keng doirada o‘rganishga yo‘l ochdi, tadqiqotlar yaratishga ilhomlantirdi.

Ma‘lumki, o‘zbek adabiyoti ham, turkman adabiyoti ham uzoq asrlik ilg‘or an‘analarga, boy tarixga egadir.Ular birinchi navbatda, o‘z xalqining ijtimoiy -siyosiy va ma‘naviy hayoti bilan har doim aloqada bo‘lib, undan oziqlanganlar, keyingi taraqqiyoti jarayonida o‘sha an‘analarga tayanganlar.

Turkman va o‘zbek o‘tmish adabiyoti, o‘z milliy an‘analari, o‘z milliy zaminida, o‘z tarixiy sharoitida rivojlanish bilan birga ular o‘zaro aloqada, adabiy ta‘sir asosida, boshqa milliy adabiyotlar bilan do‘stona ijodiy hamkorlikda, bir-birlarining ijodiy tajribalaridan bahramand bo‘lgan holda bir- birlarini boyitib, taraqqiy etib kelgan.

O‘zbek va turkman adabiyotlari o‘rtasidagi adabiy ta‘sir adabiyotlar taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham ikki tomonlama bo‘lib kelgan va hozir ham shunday davom etmoqda.

REFERENCES

1. Махтумгули . Сайланан асерлар.-Ашгабат,: Туркмендавнешр, 1963.
2. Абдуллаев. Х Хоразм адиблари//Ўзбекистон маданияти. 1966. 23-ноябрь.
3. Абдуллаев В. Сайланма. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982.
4. Дўстлик ва ҳамкорлик муносабатларини янада ривожлантириш йўлида.// Хоразм ҳақиқати. 2011. 7-май
5. Исмоилова Г. Хоразм адабий муҳити. 1994.
6. Машраб . Танланган асарлар.-Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти ,1971.